

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-4.03

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**MOLIYA MENEJMENTI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X. N.,
prof. Ayupov R.

Taqrizchilar: prof. Malikov T. S.,
dots. Srojiddinova Z. Z.

Mazkur dastur hozirgi sharoitda moliyaviy menejmentni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini qamrab oladi va iqtisodiy oliy o'quv yurtlarida bakalavriatning "Biznes va boshkaruv" sohasi "Moliya" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Moliya tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar moliyaviy menejment nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalariga kundalik faoliyatda tez-tez duch keladilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va davlat hamda korxonalar moliyasini samarali boshqarishni tashkil etish mazkur sohalarda yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Mazkur dastur savollari asosida berilgan ma'ruzalar davlat moliyasi ham korxonalar moliyasini ilmiy asoslangan tarzda boshqarish bo'yicha kerakli nazariy bilimlarni berishga qaratilgan.

Mazkur dastur asosida taqdim etilgan ma'ruzalar moliya menejment muammolarini echish uchun talabalarga zaruriy ko'nikmalar berishning nazariy yo'nalishlarini beradi.

Данная программа включает в себя теоретические и научно-методические основы организации финансового менеджмента в современных условиях и предназначена для студентов направления бакалавриата "Финансы" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены сущность, функции, звенья и современные методы финансового менеджмента, особенности и современные проблемы организации финансового менеджмента в Республике Узбекистан. В программе приведены списки литератур на узбекском, русском и английском языках. Конце списку приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

The given manual is intended for the students of economic high schools.

The specialists working on Finance system well be guided in questions of the subject Finance management.

Market conditions require high qualified experts to provide economic growth, to effectively managing of Public and companies finances. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning management of both companies and public finance.

The given rate of lectures stipulated by the program will help the students the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with financial management.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Moliya menejmenti" fanini o'qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasida moliya menejmenti haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida moliya siyosatini amalga oshiradigan korxonalar faoliyatini boshqarish asoslari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- moliya menejmentining mohiyati, ahamiyati vazifalari va tarkibiy tuzilishini o'rganish;
- moliyaviy hisobotlar turlari, ular tahlilining nazariy uslubiy asoslarini o'rganish;
- moliyaviy taxminlashtirish va byudjetning tuzilishi asoslarini o'rganish;
- moliya menejmentining fundamental kontseptsiyalarini o'rganish;
- uzoq muddatli investitsion qarorlar qabul qilish strategiyasining asoslarini o'rganish;
- korxonalar ishchi sarmoyasini boshqarish usullari, moliyaviy vositalarini o'rganish;
- uzoq muddatli moliyaviy echimlar strategiyasining vazifalari, yo'nalishlari va usullarini o'rganish.

"Moliya menejmenti" fani "Moliya", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Iqtisodiy nazariya", "Davlat byudjeti", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga "Moliya menejmenti" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Korxonalar moliyasi", "Soliq nazariyasi", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda moliyaviy qonunchilik va boshqaruv sohasidagi yangiliklardan, kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar moliya amaliyotida mavjud iqtisodiy tahlil, moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Moliya menejmenti" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, moliya sohasidagi boshqaruv amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb masalalarni echishda hamda xalqaro moliya munosabatlariga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Talabalar ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar bo'yicha tegishli mavzularda konspektlar oladi, referat va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhatdan o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollarni talabalar mustaqil ravishda to'liq o'zlashtirishlari lozim.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur fanga jami 108, shu jumladan 36 - ma'ruza, 36 - amaliy mashg'ulotlar va 36 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VII semestrga mo'ljallangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash davomida yiqqan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishning bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliya sohasiga doir qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projestexpert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalaridan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dastur tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya" bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda 7-semestrda o'tilishi mo'ljallangan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ishchi dasturda fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur.
- Ishchi dasturda har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda tegishli moliyaviy konunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etadigan tarzda berilishi kerak.
- Ishchi dasturda mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi lozim.
- Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi zarur.

2. FAN DASTURI

"Moliya menejmenti" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar mavzulari:

Moliyaviy menejment asoslari

Biznes haqida tushuncha. Biznesning asosiy maqsadi - uzoq muddatli, qisqa muddatli moliyaviy qarorlar qabul qilish. *Moliyaviy menejer, uning vazifalari va funksiyasini aniqlovchi moliyaviy boshqarish institutlari.* Moliyaviy tizimning bozor modeli. Moliya bozori yangi imkoniyatlarining shakllanishi. Ishbilarmon tashkilotchilar: korxonaga sherikchilik asosida hamda unga yolgiz egalik qilishdagi qulaylik va kamchiliklar.

Moliyaviy hisobotlar

Moliyaviy hisobotlarning asosiy turlari: balans hisoboti, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'larining harakati hisoboti. Balans aktivi moddalarining tarkibi, balans passivi moddalarining tarkibi. Foyda va zararlar hisoboti va uning asosiy elementlari. Pul mablag'lari harakati tahlili. Qo'shimcha moliyaviy hisobotlar. *Yillik moliyaviy hisobotlarning boshqa bo'limlari.*

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning mohiyati va zaruriyati usullari. Moliyaviy koeffitsentlar. Likvidlilik, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichlari. Qarzlarni boshqarish. Foydaga tavsif. Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati. *Koeffitsentlarni tahlil qilishning uslubiy asoslari.*

Moliyaviy taxminlashtirish va byudjetning tuzilishi

Moliyaviy taxminlashtirishning asosiy bosqichlari. Korxonaning sotish operatsiyalarini rejalashtirish uchun kapital qo'yilma hajmlarini oldindan baholash, korxonaning moliyaviy ta'minlanganligini hisoblash. Sotishdan olinadigan foydani hisoblash usuli, korxonada sotishdan olinadigan foydani hisoblash usulini rejalashtirishga ehtiyoj. *Byudjet turlari: joriy, moliyaviy.*

Korxonada foydatini boshqarishni takomillashtirish va tahlil qilish

Investitsiyadan olinadigan foyda - korxonaning rivojlanish ko'rsatkichi. Investitsiyalardan olinadigan foyda va aksioner sarmoyasidan olinadigan foyda koeffitsentlarini hisoblash. Aksionerlik daromadiga havf-xatarda moliyaning ta'siri. Investitsiyadan olinadigan foyda va aksionerlik sarmoyasidan olinadigan foydaning qiyosiy tahlili. *Mablag'larning qayta moliyalashtirish maqsadlarida ishlatilishi imkoniyatlari tahlili.*

Pulning vaqtinchalik qiymati, daromad va risklar

Pulning vaqtinchalik qiymati haqida tushuncha. Pulning kelgusi qiymati ko'ptseptsiyasi. Annuitet. Pulning keyingi va joriy qiymati o'zgarishidagi umumiy olti tasodif. Daromad haqida tushuncha va uning o'zgarishi. Arifmetik va geometrik daromad mohiyati, uning farqi. Risklarning mohiyati va turlari. Qimmatli qog'ozlar portfelini tayyorlash va uning o'zgarish koeffitsientlarini hisoblash.

Qimmatli qog'ozlar bilan moliyaviy operatsiyalar

Obligatsiyalar haqida tushuncha va uning belgilari: nominal qiymatli kupon stavkasi, olish vaqti, obligatsiyadan olinadigan daromadlarni hisoblash turlari. Joriy daromadni hisoblash. Qoplash muddati kelgan daromadlarni hisoblash xususiyatlari. Aktsiyalar va ularning turlari: oddiy va imtiyozli aktsiya. Oddiy va imtiyozli aktsiyalarni baholash usullarining umumiyliigi va farqi.

Sarmoya qiymati

Sarmoya qiymati. Sarmoya qiymatini uning elementlari bo'yicha hisoblash. Soliqqa tortilgunga qadar foyda qiymati. Korxonada sarmoyasining xalqaro va umumiy qiymati. Sarmoya turlarining qiymati: boshlang'ich, maqsadli, marjinal. Sarmoyaning qiymati va uni moliyalashtirish darajasi.

Sarmoyalar sarf qilinishini rejalashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning mohiyati va xususiyatlari. Investitsion loyihalarni baholash usullari. Loyihaviy qarorlarning eng yaxshi variantlarini tanlash.

Moliyaviy leveridj va sarmoya tarkibi

Zararsizlikni tahlil qilish. Marjinal foyda. Moliyaviy leveridj haqida tushuncha. Operatsion va moliyaviy leveridjni hisoblash formulasi. Sarmoya tarkibini boshqarish dastaklari. Sarmoya oqilona tarkibini ta'minlash usullari. Soliqqa tortilgunga qadar va foizlar to'langunga qadar bo'lgan foyda. Pul mablag'larining kelishini tahlil qilish. Qoplash koeffitsienti. Sarmoya oqilona tarkibini ta'minlash yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Aylanma sarmoyani boshqarish

Aylanma sarmoyani baholash. Xavf-xatar va daromad o'rtasidagi mutanosiblikni baholash. Pul operatsiyalarini tartibga solish. Korxonada uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari hajmi haqidagi qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar. Kredit va hisob-kitob siyosatining muammoli jihatlari. Tovar moddiy zahiralarni boshqarish usullari. Omborxonada tovarni saqlashning hisob kitobi.

Qisqa muddatli va o'rta muddatli moliyalashtirish

Qisqa muddatli moliyalashtirishni tatbiq etish. Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalari. Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalarining afzalliklari. Qisqa muddatli moliyalashtirishning yutuq va kamchiliklari.

Uzoq muddatli moliyalashtirishda qarz mablag'larining hisobi

Uzoq muddatli moliyalashtirish. Uzoq muddatli qarz turlarining manbalari, muddati, qo'llanilish xususiyatlari. Garovga qo'yiladigan obligatsiyalarning turlari, shartlari, imtiyozlari. Obligatsiya chiqarish xususiyatlari, turlari va shartlari. Korxonaga investori uchun zayom chiqarishni hisoblashda qo'shimcha moliyalashtirishning imtiyoz va kamchiliklari.

Aktsionerlar sarmoyalari hisoblashda uzoq muddatli moliyalashtirish

Aktsionerlar qimmatli qog'ozlarini chiqarish. Aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning turlaridagi imtiyoz va kamchiliklar. Yangi qimmatli qog'ozlar emissiyasi operatsiyasining rahbariyat tomonidan tartibga solinishi. Moliyalashtirishni tanlash usullari va unga ta'sir etuvchi omillar.

Dividend siyosati

Dividendlar. Pul shaklidagi dividend, aktsiya shaklidagi dividend. Aktsiya uchun barqaror daromad siyosati; kelishuvchanlik siyosati; qoldiq dividend siyosati; dividend ko'rinishida to'lanadigan daromadlarning doimiy ulushi. Dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillar: korxonaning o'sish sur'ati, chegaralovchi shartnomalar, daromadlilik darajalarining barqarorligi, soliq jarimalari, qarzga olingan kapital evaziga moliyalashtirish darajasi va boshqalar.

Varrantlar va konvertatsiyalangan qimmatli qog'ozlar

Varrantlarning, baholanishi. Varrantlarni chiqarishning afzalliklari va kamchiliklari. Konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar. Konvertatsion baho, foizli konvertatsion mukofot, konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlarning emitent va investorlar uchun afzalliklari va kamchiliklari. Konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar va warrantlar o'rtasidagi farqlar. Korxonaga moliyaviy strategiyasida warrantlar va konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlarning roli.

Bankrotlilik va qayta tuzish

Bankrotlilik tushunchasining mohiyati. Bankrotlilikning miqdor va sifat jihatidan ifodalanishi. Inqirozga uchrashni oldindan belgilash. Altmanning "Z-doimiyasi"ning mohiyati, uni hisoblashning moliyaviy va miqdoriy usullari. Bankrotlilikning sabablari.

Bankrotlikka uchragan korxonani qo'llab-quvvatlash variantlari: avtomatik prolongatsiya (qarz muddatini uzaytirish), qarzdorning kreditor bilan kelishuvga kelishi. *Bankrotlikka uchragan korxonani qayta tuzish*. Qayta tuzish haqida murojaat qilish. *Qayta tuzishning turlari: ijtimoiy va majburiy*.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH (LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Moliyaviy menejment asoslari

Biznes haqida tushuncha*. Taftishchi va xazinachining funksiyasi, vazifalari. Moliyaviy tizimning bozor modeli*. Moliya bozori. Moliyaviy aktivlar turlari.

Moliyaviy hisobotlar

Balans hisoboti, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'larining harakati hisoboti. Hisobotlar tarkibiy tuzilishi*. Balans aktivi moddalarining tarkibi, balans passiv moddalarining tarkibi*. Foyda va zararlar hisoboti va uning asosiy elementlari*. Pul mablag'larining harakati hisoboti*. Qo'shimcha moliyaviy hisobotlar*.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish usullari: taqqoslash, vertikal, gorizontal*. Moliyaviy koeffitsentlarni guruhlash. Likvidlilik, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichlari. Koeffitsentlar tavsifi, ularni hisoblash formulasi. Koeffitsentlarni tahlil qilishning uslubiy asoslari.

Moliyaviy taxminlashtirish va byudjetning tuzilishi

Korxonaning sotish operatsiyalarini rejalashtirish uchun kapital qo'yilma hajmlarini oldindan baholash, korxonaning moliyaviy ta'minlanganligini hisoblash. Sotishdan olinadigan foydani hisoblash usuli, korxonada sotishdan olinadigan foydani hisoblash usulini rejalashtirishga ehtiyoj*. Korxonada byudjeti haqida tushuncha. Byudjetni tayyorlashning asosiy bosqichlari*.

Korxonada foliyatini boshqarishni takomillashtirish va tahlil qilish

Investitsiyadan olinadigan foyda - korxonaning rivojlanish ko'rsatkichi. Xususiy sarmoyadan olinadigan foyda ko'rsatkichi. Aktsionerlik sarmoyasining qaytim

koefitsienti*. Investitsiyalardan olinadigan foyda va aksioner sarmoyasidan olinadigan foyda koefitsentlarini hisoblash*.

Pulning vaqtinchalik qiymati, daromad va risklar

Pulning vaqtinchalik va kelgusi qiymati koefitsientlari. Pulning kelgusi qiymatini hisoblash. Pulning joriy qiymatini hisoblash. Pulning keyingi va joriy qiymati o'zgarishidagi umumiy olti tasodif. Daromad haqida tushuncha va uning o'zgarishi. Kutiladigan foyda normasini hisoblash*. Sotib oluvchilarning to'lovga layoqatliligi. Qimmatli qog'ozlar portfelini tayyorlash va uning o'zgarish koefitsentlarini hisoblash*.

Qimmatli qog'ozlar bilan moliyaviy operatsiyalar

Obligatsiyalar haqida tushuncha va uning belgilari: nominal qiymatli kupon stavkasi, olish vaqti, obligatsiyadan olinadigan daromadlarni hisoblash turlari*. Qoplash muddati kelgan daromadlarni hisoblash xususiyatlari*. Aktsiyalar va ularning turlari: oddiy va imtiyozli aktsiya*. Oddiy aktsiyalardan kutiladigan daromadlarni hisoblash.

Sarmoya qiymati

Sarmoya qiymatini uning elementlari bo'yicha hisoblash*. Soliqqa tortilgunga qadar foyda qiymati. Taqsimlanmagan foyda. Korxonada sarmoyasining xalqaro va umumiy qiymati. Sarmoyaning qiymati va uni moliyalashtirish darajasi*.

Sarmoyalar sarf qilinishini rejalashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning mohiyati va xususiyatlari*. Investitsion loyihalarni baholash usullari: qoplash muddati, foyda normasini hisoblash, sof joriy qiymati, rentabellik koefitsienti*.

Moliyaviy leveridj va sarmoya tarkibi

Zararsizlikni tahlil qilish. Marjinal foyda. Marjinal foyda beradigan muvozanat nuqtasi va uni hisoblash. Moliyaviy leveridj. Operatsion va moliyaviy leveridjni hisoblash formulasi*. Soliqqa tortilgunga qadar va foizlar to'langunga qadar bo'lgan foyda. Aktsiyadan olingan foyda. Pul mablag'larining kelishini tahlil qilish. Sarmoya oqilona tarkibini ta'minlash yuzasidan qarorlar qabul qilish*.

Aylanma sarmoyani boshqarish

Aylanma sarmoyani baholash* va Pul operatsiyalarini tartibga solish. Korxonada uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari hajmi haqidagi qaror qabul qilish. Debitorlik qarzlarni boshqarish usullari. Kredit va hisob-kitob siyosatining muammoli jihatlari. Tovar moddiy zahiralarni boshqarish usullari.

Qisqa muddatli va o'rta muddatli moliyalashtirish

Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalari: korxonaga o'z mablag'lari, tijorat krediti, bank krediti, qimmatli qogozlarni sotishdan tushum, kreditorlik qarzlari*. Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalarining afzalliklari.

Uzoq muddatli moliyalashtirishda qarz mablag'larining hisobi

Uzoq muddatli qarz turlarining manbalari, muddati, qo'llanilish xususiyatlari*. Obligatsiya chiqarishning xususiyatlari, turlari va shartlari. Korxonaga investori uchun zayom chiqarishni hisoblashda qo'shimcha moliyalashtirishning imtiyoz va kamchiliklari*.

Aktsionerlar sarmoyalarini hisoblashda uzoq muddatli moliyalashtirish

Aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning turlaridagi imtiyoz va kamchiliklar. Moliyalashtirishni tanlash usullari va unga ta'sir etuvchi omillar*. Banklarning korxonaga investitsion faoliyatini tashkil etishdagi roli.

Dividend siyosati

Dividend siyosati va uning turlari*. Aksiya uchun barqaror daromad siyosati; kelishuvchanlik siyosati; qoldiq dividend siyosati; dividend ko'rinishida to'lanadigan daromadlarning doimiy ulushi. Dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillar.

Varrantlar va konvertatsiyalangan qimmatli qog'ozlar

Varrantlarning baholanishi*. Konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar*. Konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar va warrantlar o'rtasidagi farqlar*. Korxonaga moliyaviy strategiyasida warrantlar va konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlarning roli.

Bankrotlilik va qayta tuzish

Bankrotlilikning miqdor va sifat jihatdan ifodalanishi*. Inqirozga uchrashni oldindan belgilash. Bankrotlilikning sabablari. Bankrotlikka uchragan korxonani qo'llab-quvvatlash variantlari: avtomatik prolongatsiya (qarz muddatini uzaytirish), qarzdorning kreditor bilan kelishuvga kelishi*. Bankrotlikka uchragan korxonani qayta tuzish. Qayta tuzishning turlari: ijtimoiy va majburiy. Korxonaning tugatilishi*.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

"Moliya menejmenti" fanidan darslarni tashkil etishda ko'rgazmali vositalar, slaydlar, diafilmlardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim mavzularni o'rganish kompyuter texnikasidan ham foydalanishni talab etadi.

Tahlillar, prognozli ko'rsatgichlar, diagrammalar, personal kompyuterda, elektron jadvallarda Excel 7,0 paketi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etilishi mumkin.

Shu bilan birga talabalar "Pravo" tizimi orqali moliyaviy qonunchilik yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

Case Studies: O'zbekiston Respublikasida moliyaviy menejment tizimiga doir o'quv misollari (rus tilida). Moliya Vazirligi xomiyligida "Byudjet-soliq siyosati" Markazi tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: www.google.ru (Rossiya Federatsiyasi menejment va bozor akademiyasi "Moliya menejmenti ilmiy tadqiqot instituti" dasturlari (mualliflar rahbari akad. E.Stoyanova)); www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.worldbank.org.ru; www.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.
2. Promishlennost Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va orqali amalga oshiriladi; joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- ilmiy tezislar tayyorlash;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYO'T

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul kilingan. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining parametrlari to'g'risi"dagi 455-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. – T.: O'zbekiston, 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. - T.: O'zbekiston, 2002.
8. Akramov E.A., Tairov A.E. Ekonomicheskie reformi Respubliki Uzbekistan. - M.: TOO "Lyuks-art", 1998.
9. Analiz finansovix dannix s pomoshchyu samoorganizuyushchixsya kart. Gvido Debok, Teyvo Koxonen i dr. Per. s angl. -M.: Izd. dom Alpine, 2000.
10. Xrutskiy V.E., Sizova T.V., Gamayunov V.V. Vnutrifirmennoe byudjetirovanie. -M.: Finansi i statistika, 2002.
11. Yurtseva T.V. Ekonomika nekommercheskix organizatsiy. -M.: Yurist, 2002.
12. Bocharov V.V. Upravlenie denejnim oborotom predpriyatiy i korporatsiy. -M.: Finansi i statistika, 2001.

13. Blank I.A. Osnovi finansovogo menedjmenta. 2-izd. – Kiev.: Nika-tsentr, 2001.
14. Brigxem Yu. Entsiklopediya finansovogo menedjmenta. Per. s angl. - M.: Ekonomika, 1998.
15. Soloveva A.K. Finansovaya sistema gosudarstvennogo strategiya v Rossii. -M.: Finansi i statistika, 2001.
16. Statistika finansov. Pod red. V.N.Salika 2-e izd. -M.: Finansi i statistika, 2002.
17. Burkov V.N. i dr. Modeli i mexanizmi raspredeleniya zatrat i doxodov v rinochnoy ekonomike. 2-izd. -M.: Izd. Inst-ta prob. Uprav., 2001.
18. Drobozina L.A. Finansi. Uch. dlya VUZov -M.: Banki i birji, 2000.
19. Rodionova V.M. Finansi. 3-izd. -M.: Finansi i statistika, 2001.
20. Sabanti B.M. Teoriya finansov. Uch. pos. 2-izd. – M.: Menedjer, 2001.
21. Finansi. Uch. pod red. d.e.n. Kovalevoy A.M. 3-izd. -M.: Finansi i statistika, 2001.
22. Xeddervik K. Finansovo-ekonomicheskii analiz deyatel'nosti predpriyatiy. Uch. pod red. Voronova Yu.N. 3-izd. -M.: Finansi i statistika, 2001.
23. Erik Xelfert Texnika finansovogo analiza: Per. s angl. Pod red. Belix L.P. -M.: Audit, YuNITI, 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Gerasimenko G.P., Markaryan E.A. Finansoviy analiz. Uch. pos. -M.: PRIOR, 1996.
2. Ibrohimov A.T. Moliyaviy tahlil. -T.: Mehnat, 1995.
3. Larionov I. K. O nekotorig voprosax sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki// Finansi, 1997.
4. Rusak N.A., Rusak V.A. Osnovi finansovogo analiza. 2-izd. Minsk, OOO Mirkavanne, 2001.
5. Kreynina N. Finansoviy menedjment. Uch. dlya vuzov. 3-izd. –M.: Infra-M, 2001.
6. Balabanov I.T. Praktikum po finansovomu menedjmentu. 2-izd. –M.: Finansi i statistika, 2000.
7. Finansoviy menedjment. Uch. pod red. E.Stoyanovoy. 2-izd. –M.: Infra-M, 2001.
8. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya, 2-izd., -M.: Finansi i statistika, 2001.
9. Boyd J. Inflation. "Growth and Control Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research Working Paper. 1575. The World Bank. Washington. D. C.
10. EBKD transition Report 1998. Financial sector in transition. European Bank for Reconstruction and Development. London 1998.
11. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.

12. Moyer C. Financial System. Corporate Finance and Economic Development, in RA Hubbart (ed) Asymmetric information. Corporate Finance and investment. A Notional Bureau of Economic 1990 Research Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.
13. Steinherr A. An innovator Package for Financial Sector Reforms in Eastern European Countries. Journal of Banking and Finance 17 PP. 1033-1057.
14. Mingaleva Zh. About the experience of enterprise's strategies in crises situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, trends of development: S-Petersburg 1998.
15. Tkacheva S. Innovation Activities Infrastructure as Multi Agent System The 11th Annual Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000. 136-141.